



MURABBIY

ILMIY-MA'RIFIY JURNAL

“MURABBIY”

**ILMIY-MA'RIFIY
JURNAL**

Issue:1 2021 | №1, 2021

<https://science.jspi.uz/>



Chief Editor:

S.Nazarkasimov, Doctor of Philosophy (Ph.D) in Sociology, Vice-Rector of Jizzakh State Pedagogical Institute, Uzbekistan

Deputy Chief Editor:

A.Turaev, senior teacher of Jizzakh State Pedagogical Institute, Uzbekistan

Members of the editorial board:

Sh.S.Sharipov - Professor

B.M.Ochilova - Professor

D.Khodjimetova - assistant professor

A.Pardaev - assistant professor

M.N.Khoshimkhonov - assistant professor

A.I.Saidkasimov - assistant professor -

F.K.Akhmedov - assistant professor

B.E.Toshboev - assistant professor

I.N.Akhmedov - PhD

D.Salimova - PhD

N.N.Alimov - assistant professor

M.Saidov - Ph.D.

X.Maxammadiev - teacher

Editorial Representative:

Abrar Turaev

Jizzakh State Pedagogical Institute,
Uzbekistan

Phone: +998933091877

e-mail: ijtimoiy2017@mail.ru

**ONLINE ELECTRONIC
JOURNAL**

“Murabbiy” ilmiy-ma’rifiy jurnali
“Mentor” scientific-educational
journal

Научно-просветительский
журнал “Наставник”

Indexed By:



Published By:

<https://science.jspi.uz/>

Jizzakh State Pedagogical
Institute, Uzbekistan



MUNDARIJA / CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

№	MUALLIFLAR/ AUTHORS / АВТОРЫ	MAQOLA NOMI/ ARTICLE TITLE/ НАЗВАНИЕ СТАТЬИ	SAHIFALAR/ PAGES/ СТРАНИЦЫ
1	<i>Қирғизбоев Муқимжон</i>	Камбағаллик – XXI аср муаммоси	6-14
2	<i>Очилова Бахти Мурадовна</i>	Демократик кадриятлар ва ўзини-ўзи бошқариш	15-25
3	<i>Муҳаммадиев Нурмуҳаммад Эргашевич</i>	Жамиятнинг янгилинишида фалсафа илмининг методологик аҳамиятини янада оширишнинг долзарб масалалари	26-30
4	<i>Ахмедшина Фания</i>	Проблема выравнивания положения женщин и мужчин (опыт Узбекистана и зарубежных стран)	31-35
5	<i>Анварова Маърифат Нарзуллоевна</i>	Использование инновационных технологии при обучении арабскому языку	36-42
6	<i>Tilavova Malika Mataramovna</i>	Inversion is a bridge to the wonders of the language world	43-50
7	<i>Худойназаров Сардор</i>	Консультатив психология бўйича мутахассислар тайёрлаш муаммолари	51-54
8	<i>Ғофуров Жасур Исақович</i>	Уструшонанинг илк ўрта аср хунармандчилигига доир	55-58
9	<i>Ибрагимов Солижон Эргашевич</i>	Баркамол авлодни шакллантиришда гўзаллик тушунчасининг аҳамияти	59-63
10	<i>Севостьянов Дмитрий Анатольевич</i>	Инверсивные отношения как диалектический когнитивный конструкт	64-67
11	<i>Muhammadsidiqov Muhammadolim Muhammadroziq o'g'li</i>	Integratsiya tushunchasi: mazmun va mohiyati	68-77
12	<i>Ҳолиқова Рахбархон</i>	Ижтимоий-гуманитар соҳа	78-81

	<i>Эргашевна, Махкамова Надира, Тўхтабоева Дилафрўз Эргашевна</i>	вакилларининг тадқиқотларида урбанизация жараёнлари	
13	<i>Ежель Н.Е. , Стародубцева С.С. , Шишова А.А</i>	Проблема веры и современное мировоззрение человека	82-91
14	<i>Ibaidullaev Temir Gaybullaevich</i>	Harmony of uzbek national clothing culture and modernity	92-95
15	<i>Наумов Дмитрий Иванович</i>	Историческая политика в условиях глобализации	96-101
16	<i>Соегов Мурадгелди</i>	Туркмены-оламы самарканда на фоне истории своих прямых предков – древних аланови современные реалии	102-114
17	<i>Кобилов Рустам Ражаббойевич</i>	Ёшларда геоиктисодий тафаккурни шакллантириш ва ривожлантириш асосий омиллари	115-119
18	<i>Ганеева Галия Галияновна</i>	Желательное наклонение глагола в башкирском языке и история его изучения	120-125
19	<i>Инатов Мурот Ниятович,</i>	Хатларни микдорий таҳлил этиш усуллари	126-131
20	<i>Холмирзаева Манзура Абдумурадовна</i>	Инновацион ривожланиш шароитида миллий манфаатларни мафкуравий жиҳатдан химоя қилишнинг фалсафий жиҳатлари	132-136
21	<i>Билалова Дина Нуримановна, Киреева Надежда Анатольевна</i>	Применение инновационных цифровых технологий в преподавании гуманитарных дисциплин в техническом вузе	137-142
22	<i>Собиров Элмурод Абдумуталович, Юсупова Сайёра</i>	Исҳоқхон Тўра Ибратнинг илмий-ижоди ва маънавий-маърифий мероси	143-147
23	<i>Кулуева Флора Гайнутдиновна</i>	Приоритетные задачи социально-гуманитарных наук в условиях глобализации	148-151

24	<i>Умаров Р.Т.</i>	Соҳибқирон Амир Темурнинг бунёдкорлик ишлари	152-155
25	<i>Isankulova Muxlisa, Alimova Qunduz</i>	Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirilish masalalari	156-159
26	<i>Mustafaqulova Dildora Ismatullayevna, Ismatullayev Otabek</i>	Biologiya darslarida o‘quvchilarning tizimli tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	160-166
27	<i>Нурийман Абулҳасан</i>	Глобаллашув даврида виртуал таҳдидларга қарши курашнинг ўзига хос хусусиятлари	167-178
28	<i>Тураев Абрар Салохиддинович</i>	XX аср охири– XXI аср бошларида марказий осие мамлакатларини демократлаштириш масалалари бўйича АҚШ неоконсерваторларининг ёндашувлари	179-184
29	<i>Тошбоев Бобомурот</i>	Ўртак ва шахсий намуна узликсиз маънавий тарбиянинг ажралмас қисми	185-188
30	<i>Eryigitov Dilshod</i>	Ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik-texnologiyalarni qo’llash	189-192

YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRILISH MASALALARI

Isankulova Muxlisa Xasanboy qizi

*Jizzax davlat pedagogika instituti
Maktab menejmenti yo’nalishi talabasi*

Alimova Qunduz Oybek qizi

*Jizzax davlat pedagogika instituti
Maktab menejmenti yo’nalishi o’qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish ishlari hamda ijtimoiy ish bilan shug’ullanuvchi kasb egalarining hozirgi kunda duch keladigan muammolari va kasbiy qadriyatlari haqida tushunchalar keltirilgan.

***Kalit so’zlar:** professional kasbiy faoliyat, ijtimoiy ish, xodim, axloqiy qoida, kasbiy qadriyatlari, konfidensiallik.*

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ma’naviy yetuk va jismonan sog‘lom barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamlariga daxldor bo‘lgan dolzarb masalalar, ayniqsa, uyushmagan yoshlarning hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kasbga yo‘naltirish va bandligini ta’minlash, tashabbuslarini rag‘batlantirish borasidagi ishlar talab darajasida tashkil etilmaganidan dalolat bermoqda.

Joylarda, avvalambor chekka hududlarda istiqomat qilayotgan ko‘p sonli yoshlarning o‘z iqtidor va iste’dodini ro‘yobga chiqarishlari, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun keng sharoitlar yaratish, ularni turli zararli illat va yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish kabi muhim vazifalarni hal etishda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati O‘zbekiston yoshlarini buyuk maqsadlar sari birlashtiradigan va safarbar etadigan ommaviy harakatga aylana olmaganini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda. Shu sababli, mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish maqsadida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrleydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir,

tashabbuskor, xalq manfaati yo‘lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish borasidagi islohotlarda yoshlar faolligini oshirish bilan bog‘liq bir qator yangi va muhim vazifalarni belgilab berganini alohida qayd etish joiz.

Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini tubdan isloh etish maqsadida hamda bu borada keng jamoatchilik, avvalo, yoshlar vakillarining taklif va mulohazalarini e‘tiborga olgan holda:

- O‘zbekiston “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining 2017-yil 30-iyun kuni bo‘lib o‘tgan IV qurultoyi qaroriga muvofiq, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilgani
- O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil topgan kun – 30-iyun sanasi mamlakatimizda “**Yoshlar kuni**”, deb e‘lon qilinishi
- O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilar belgilanishi:

birinchidan, O‘zbekiston yoshlar ittifoqini respublikada yoshlarga oid davlat siyosatining amalga oshirilishida davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorlikni ta‘minlovchi, “**Yoshlar – kelajak bunyodkori**” shiori ostida professional faoliyatni amalga oshiruvchi tuzilmaga aylantirish;

ikkinchidan, yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ongi va qalbida mustaqillik g‘oyalariga sodiqlik, milliy o‘zlikni anglash, Vatanga muhabbat va uning taqdiriga daxldorlik, fidoyilik hissini qaror toptirish va rivojlantirish, turli mafkuraviy tahdidlardan asrash;

uchinchidan, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi va oila muqaddasligi g‘oyalarini keng targ‘ib qilish, erta turmush qurish va yosh oilalar ajralishining oldini olishga qaratilgan samarali tadbirlarni amalga oshirish;

to‘rtinchidan, yoshlarni, ayniqsa, ular uyushmagan qismining bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida sport va jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanishga, ijodiy to‘garaklar va turli, jumladan, xorijiy tillarni o‘rgatish o‘quv kurslariga keng jalb etish;

Buyuk davlat arbobi va sarkarda Sohibqiron Amir Temurning Vatanga sadoqat, el-yurtni ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlarini yosh avlod uchun o‘rnak bo‘lib xizmat qilishini inobatga olgan holda, respublikaning

barcha harbiy akademik litseylariga “Temurbeklar maktabi” nomi berilishi ham yoshlarga bo’lgan e’tiborni rivojlanishida yaqqol namayon bo’ladi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqining “Turkiston” va “Molodoyj Uzbekistana” gazetalari, “Yosh kuch” jurnali hamda boshqa yoshlar nashrlarini chop etishga ixtisoslashgan “Yoshlar nashriyoti uyi” tashkil qilinishi ham yuqoridagi fikrlarimizni davomi hisoblanadi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi qoshida yoshlarning xohish va intilishlaridan kelib chiqib, yoshlar uyushmalari hamda yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko’rsatish markazlarini tashkil etilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida Yoshlar muammolarini o‘rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash institutini tashkil etish;

Yurtimizda turli soha va tarmoqlarda yuksak natija va yutuqlarga erishayotgan yigitlarni taqdirlash maqsadida “Mard o‘g‘lon” davlat mukofotini ta’ sis etish;

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish, o‘qish, mehnat va jamoat ishlarida har tomonlama faol ishtirok etayotgan yoshlarni taqdirlash maqsadida “Kelajak bunyodkori” medalini ta’ sis etish;

Yurtimizda olib borilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirilishi Prezidentimizning qaror va farmon, farmoyishlarida yaqqol ko’zga ko’rinadi.

Har qanday kasb odamlarning ehtiyojlariga javob tariqasida vujudga keladi, lekin ana shu «javob»ning shakllanishi ba’zan qisqa, ba’zan esa juda uzoq vaqt davom etishi mumkin. Ijtimoiy ishni professional kasbiy faoliyat darajaga ko’tarish maqsadida 2004- 2005-o‘quv yilida Toshkent Davlat Madaniyat (hozirgi Toshkent davlat San’at va Madaniyat instituti) institutida «Ijtimoiy ish» ixtisosligi bo‘yicha mutaxassis tayyorlaydigan bo‘limi ochildi. 2005-2006-o‘quv yilidan boshlab esa shunday bo‘limlar Samarqand Davlat universiteti va Farg‘ona Davlat universitetida ham ish boshladi. 2010-2011-0‘quv yilidan boshlab O‘zbekiston Milliy universitetida ham «ijtimoiy ish» ta’lim yo‘nalishlari ochildi.

Ijtimoiy ish keng ma’noda ijtimoiy hodisa sifatida ijtimoiy yordamning o‘ziga xos modelidir. Uni jamiyatning aniq bir tarixiy davrida ijtimoiy, siyosiy va madaniy rivojlanishining xususiyatlariga mos ravishda ro‘yobga chiqaradi. Tor ma’noda esa ijtimoiy ish ijtimoiy zaruriy faoliyat bo‘lib, odamlar, ijtimoiy guruhlariga shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berishga qaratilgan.

Ijtimoiy ish bilan shug‘ullanuvchi kasb egalari bugungi kunda keng doiradagi muammolarga duch kelmoqdalar. Alkogolizm, giyohvandlik, mulkchilik huquqlarining buzilishi, bolalarga yomon muomalada bo‘lish, oilaviy janjallar,

ruhiy va jismoniy kasalliklar, darbadarlik, jamiyatdan ajralgan holda yashash shular jumlasidandir. Bularning barchasi maxsus tayyorgarlik talab qiladi. Bunga yuzaki yondoshish mumkin emas. Chunki ijtimoiy ish xodimlari tegishli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘libgina qolmay, balki shu kasbga doir axloqiy me‘yorlar va tamoyillarga rioya qilishga tayyor bo‘lishlari kerak.

Ijtimoiy ish xodimlarining professional qadriyatlari haqida gapiradigan bo‘lsak, ular fuqaroning mehnat va ta’lim taraqqiyoti bilan bog‘liq qarorlarni boshqaradigan printsiplar hisoblanadi. Barcha shaxslar o‘z ishlarida vakolatli va hamkasblariga va atrof-muhitga hurmat bilan munosabatda bo‘lishlari kerak. Bundan tashqari, shaxslar fuqarolik va professional sifatida harakat qilish bilan bog‘liq bo‘lgan har bir narsada g‘ayratli va halol bo‘lishi kerak.

Professional ishlash nafaqat ish haqi uchun vazifani bajarishdan ko‘proq narsani o‘z ichiga oladi. Bu yaxshilik qilishga va jamiyatga foydali bo‘lishga olib borishi kerak bo‘lgan xizmat kasbini nazarda tutadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, ijtimoiy ish xodimlarining kasbiy qadriyatlarning qoidalari qanday ekanligini anglashlari va shu qoidalar asosida ishlarini olib borishlari muhim va shart ekanligini hech qachon unutmasliklari zarur. Chunki inson u kim bo‘lishidan qat’iy nazar qadriyatlarini bilsagina o‘z faoliyatida qo‘llay olsa kerakli natijaga erishishlari mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. I.A.Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: O‘zbekiston, 2008.
2. G‘aniyeva M.X. Ijtimoiy ish asoslari. Toshkent. 2012y.
3. Uvatov U. O‘zbekiston – buyuk allomalar yurti. – T.: Ma’naviyat. 2010.
4. Шеров М. ИЖТИМОЙ ИШ ЭТИКАСИ. Т. “Фан ва технологиялар” нашриёти 2015 й.
5. Абдулла Шер Ахлоқшунослик. Тошкент. 2000. 5-бет
6. Абдулла Шер. Ахлоқшунослик. Тошкент. 2000 й. 17-18 бетлар.
7. Alimova, Q. (2021). УПРАВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ. Джизакское инновационное образование, 1(1). извлечено от <https://education.jspi.uz/index.php/education/article/view/564>
8. Alimova, Q. (2020). Farzand tarbiyalashda ota-onalarning asosiy xatolari. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 1(1). извлечено от <https://ppmedu.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/436>